



UDK:765.5

*Farhodjon ALIMDJANOV,*  
"University of Business and Science" oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi  
E-mail: Alimdjanovfarhod36gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD N.Suyarov taqrizi asosida

## GLOBAL IQLIM O'ZGARISHLARI SHAROITIDA SHAHSNING EKOLOGIK FAOLLIGINI OSHIRISHGA OID HORIJY TAJRIBALAR

Annotatsiya

Ijtimoiy sub'ektlarning tabiatga va atrof-muhitga salbiy ta'sirini bartaraf qilishning eng samarali yo'li – shaxsning ekologik faol bo'lishiga erishish sanaladi. Shaxsning ekologik faolligi birgina ijtimoiy sub'ektning emas, balki har bir jamiyat va hatto barcha jamiyatlar a'zolarining ekologik barqarorlikka erishish yo'lida amalga oshiradigan harakatlari mazmunini anglatadi. Xorijiy mamlakatlarning shaxs ekologik faolligini oshirishga oid tajribalari bilan tanishish, ularning mohiyatini o'rganish talabalarda ekologik tizim muhofazasi uchun mas'ullik hissini samarali tarbiyalashga xizmat qiladi. Maqolada shaxs ekologik faolligini oshirishga oid xorijiy tajribalar va ularning global iqlim o'zgarishlari sharoitidagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** iqlim o'zgarishi, global iqlim o'zgarishlari, shaxs, faollik, ekologik faollik, shaxsning ekologik faolligi, tajriba, xorijiy tajriba, shaxsning ekologik faolligini oshirishga oid xorijiy tajribalar.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЛИЧНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОГО ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА

Аннотация

Наиболее эффективный способ устранения негативного воздействия социальных субъектов на природу и окружающую среду – сделать человека экологически активным. Экологическая деятельность человека означает содержание действий не только одного социального субъекта, но и членов каждого общества и даже всех обществ по достижению экологической стабильности. Знакомство с опытом зарубежных стран по повышению личной экологической активности, изучению ее сущности служит эффективному воспитанию у студентов чувства ответственности за охрану экологической системы. В статье говорится о зарубежном опыте повышения экологической активности человека и его значении в условиях глобальных изменений климата.

**Ключевые слова:** изменение климата, глобальные изменения климата, человек, активность, экологическая активность, экологическая активность человека, опыт, зарубежный опыт, зарубежный опыт повышения экологической активности человека.

## FOREIGN EXPERIENCES ON INCREASING PERSONAL ECOLOGICAL ACTIVITY UNDER GLOBAL CLIMATE CHANGE

Annotation

The most effective way to eliminate the negative impact of social subjects on nature and the environment is to make a person ecologically active. Human ecological activity means the content of actions not only of one social subject, but also of members of each society and even all societies to achieve ecological stability. Familiarization with the experience of foreign countries in increasing personal ecological activity, studying its essence serves to effectively educate students in a sense of responsibility for the protection of the ecological system. The article discusses foreign experience in increasing human ecological activity and its significance in the context of global climate change.

**Key words:** climate change, global climate change, human, activity, ecological activity, human ecological activity, experience, foreign experience, foreign experience in increasing human ecological activity.

**Kirish.** Axborot olami ichida yashayotgan bugungi kun kishisi umri davomida ko'pdan-ko'p manbalar, dalillar raqamlarga murojaat qilishga majbur. "Raqamlar sehri" dan insonlarni ta'sir doirasiga olishning bir usuli sifatida foydalanilishi ham shundan. Aslida, bu narsalar insonga atrofda – yurtida va dunyoda sodir bo'layotgan voqea, hodisa, jarayonlarni anglashi, ularning o'zaro aloqadorligi, munosabati va mohiyatiga chuqur kirib borishi uchun kerak. Bugun oddiy ma'naviyat bilan ilg'orlar safida bo'lish ehtimoli past. Bu yerda faqat yuksak ma'naviyatgina yordam bera oladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Makedoniyalik tadqiqotchilar - S.S.Veselinovskaya, T.L.Osogovskaya tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishda shahar va qishloq hududlarida istiqomat qiladigan o'quvchilarning atrof-muhit

muhofazasini tashkil qilishga bo'lgan munosabati va faolliklari o'rganilgan. Ishda dastlab "ekologik ta'lim" tushunchasining ekologik talqini yoritilgan. Mualliflar tomonidan Jeyms Farmer, Dug Knapp, Gregori M. Benton ilgari surgan ta'rif ma'qul deb topiladi. Ya'ni, ekologik ta'lim – o'quvchilarga atrof-muhit, uning muhofazasiga oid bilimlarni berish orqali ularda ekologik qadriyatlarini qaror toptirishga qaratilgan pedagogik jarayon [11] sanaladi. Tadqiqotning maqsadi o'quvchi (fuqaro)larda ham individual ham jamoaviy shaklda kelajakni xavf ostiga qo'ymagan holda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mazmundagi iste'molchilik ehtiyojlarini ifodalovchi ongli ekologik xulq-atvor sifatlarini tarbiyalashdan iborat.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Ayni damda aholi orasida atrof muhitga bo'lgan munosabat yomonligi tufayli tabiatimiz

achinarli xolatga tushib qoldi, shuning uchun axoli ongini ekologik madaniyatga boyitish zarur ekanligi eng dolzarb muammoligini anlashimiz kerak bo'ladi. Biz axoli ongini ekologik madaniyatga boyitib, ularni atrof muxitga bo'lgan munosabatini yaxshila olsak, biz bu orqali kelajak avlodga mustaxkam poydevor qo'yib, Ona tabiatni asrashga o'zimizni katta xissamizni qo'gan bo'lamiz.

Xorijiy tajribalarni o'rganish chog'ida jahon tajribasida shaxs ekologik faolligini oshirishning yagona samarali yo'li – ekologik ta'lim mazmunini kognitiv qarashlar negizida emas, balki ta'lim oluvchilarni tabiat, atrof-muhitda bevosita amaliy faoliyat ko'rsatish, ekologik muammolarni o'zlarini ko'rgan, his qilgan holda ongli ravishda anglab yetishga imkon beradigan empirik yondashuvlar, ya'ni, "kitobni emas, tabiatni o'rganish zarur" g'oyasi yordamida shakllantirish ekanini tasdiqladi. Shunga ko'ra bir guruh tadqiqotchilar amalga oshirgan ilmiy izlanishning mohiyatini ekologik ta'lim, uning ustuvor tamoyillari va amaliy-yo'naltiruvchi doktorina tashkil qiladi.

Karter L. Robert (Carter L. Robert) hamda Simmons Bora (Simmons Bora) [10] ekologik ta'limning shakllanish tarixini o'rganishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yan. Maqsadga erishish yo'lida mualliflar mavjud tadqiqotlar dastlab ekologik ta'limning umumiy mohiyatini ochib beradi. Ekologik ta'limning yakuniy maqsadi ekologik ma'lumotga, shuningdek, yangi yuz yillikda tobora kuchayib borayotgan ekologik muammolarni oqilona hal qilish qobiliyatiga ega mas'uliyatli shaxsni tayyorlashdan iborat hisoblanadi.

**- Tahlil va natijalar.** Darhaqiqat, ekologik muammolar kutilgan darajada insoniyat qachonki, o'zi va tabiat o'rtasidagi bir-birini taqozo etuvchi o'zaro munosabatni sidqidildan tushuna olgandan keyingina hal qilinishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, ekologik ta'lim o'quvchi va talabalarda atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptira olishi kerak. Shu narsani yodda tutish joizki, agarda ekologik xavfga keragidan ortiq e'tibor qaratilsa, u holda talabalarda yashashga bo'lgan ishtiyoq so'nishi, hayotga bo'lgan intilish pasayishi mumkin. Bu esa ta'limning tegishli yo'nalishida ekologik bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan pedagogik faoliyatni bir me'yorda tashkil etish zarurligini anglatadi [10]. Munir Jabroil Karama (Munere Jebreel Karama) [12] tomonidan olib borilgan tadqiqotda BMT doirasida tashkil qilinadigan ekologik ta'lim mohiyati Falastinning milliy ekologik maqsadlar bilan o'zaro qiyosiy o'rganilgan. Tahliliy qarashlar asosida muallif ekologik ta'limning dastlabki g'oyalari XVIII asrda, ya'ni, bir guruh faylasuf hamda pedagoglar tomonidan "kitobni emas, tabiatni o'rganish zarur" g'oyasi ostida ta'lim oluvchilar diqqati atrof-muhit muhofazasi va uni tashkil qilishga qaratish tashabbusi ilgari surilgan davrdan boshlanib, BMT doirasida tashkil qilinib, atrof-muhit barqarorligiga bag'ishlangan anjumanlar "uchligi"ning muhokama mavzu qilib belgilanishi orqali o'zining "yuqori cho'qqisi"ga chiqqan, degan fikrni ilgari suradi. "Uchlik" anjuman – Stokgol'm (5-16 iyun 1972 yil), Tbilisi (14-26 oktyabr 1977 yil) va Rio-de-Janeyro (3-14 iyun 1992 yil) konferentsiyalari XXI asr ijtimoiy umuminsoniy ma'rifatning asoslaridan biri bo'lgan ekologik ta'lim mazmunini shakllantirish negizida bashariatni global xavfdan ogoh etgan.

Ayni o'rinda Rio-de-Janeyro konferentsiyasi misolida BMTning atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish va shaxsning bu jarayondagi ishtiroki xususidagi eng muhim tamoyillari [5] ga to'xtalib o'tiladi: ekologik masalalar tegishli darajalarda barcha manfaatdor fuqarolarning ishtirokida bir qadar samarali shakllarda hal qilinadi; milliy darajada har bir shaxs davlat organlari tasarrufida bo'lgan xavfli materiallar va ularning jamiyat faoliyatidagi o'rni, atrof-muhit muhofazasiga, shuningdek, ularni bartaraf qilishga oid ega tegishli axborotni olish huquqiga ega (10-tamoyil); barqaror rivojlanish, ekologik

xavfsizlikka erishish uchun global hamkorlikni shakllantirish va barcha uchun yaxshi kelajakni ta'minlash maqsadida yoshlarning ijodiy kuchi, ideallari va jasoratini mobilashtirish (maqsadli foydalanish) talab qilinadi (21 tamoyil); dunyo, taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasi o'zaro bir-biriga bog'liq hamda ajralmasdir (25-tamoyil).

BMTning atrof-muhit muhofazasini tashkil qilishga doir rezolyutsiya (hujjat)larida tegishli masalani ijobiy hal qilishda davlatning o'rni va roli katta ekani alohida qayd etib o'tiladi. Chunonchi, Rio-de-Janeyro konferentsiyasida qabul qilingan 27 ta tamoyilning 13 tasi bevosita davlatning atrof-muhit muhofazasini ta'minlashdagi majburiyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Ayni o'rinda ularning ayrimlari namuna sifatida keltiriladi: Yer shari ekotizimini saqlash, muhofaza qilish, shuningdek, sog'lom holati va bir butunligini qayta tiklash maqsadida davlat global hamkorlik ruhidagi faoliyatni tashkil qiladi; o'zining atrof-muhit global holatini yomonlashuvda ahamiyatli bo'lgan turli shakldagi rolining oqibati uchun umumiy, biroq, turlicha mohiyatga ega bo'lgan javobgarlikni zimmasiga oladi; rivojlangan mamlakatlar o'zlariga ega bo'lgan texnologik va moliyaviy resurslarni yo'naltirgan holda global atrof-muhit muhofazasini ta'minlovchi birlashmalarni tuzish orqali mavjud xavfni inobatga olgan holda barqaror rivojlanishni ta'minlash bo'yicha xalqaro miqyosdagi mas'uliyatini e'tirof qilishi zarur (7-tamoyil); davlat barcha kishilar uchun barqaror rivojlanish hamda yetarlicha sifatli hayotni ta'minlash uchun ishlab chiqarish hamda iste'molning salbiy modellarini cheklashi va tugatishi, shuningdek, demografik siyosatga muvofiq rag'batlantirishi zarur (8-tamoyil); davlat aholining atrof-muhit muhofazasidagi ishtirokini ularga keng ko'llamdagi axborotlarni taqdim qilish va bu yo'ldagi amaliy harakatni qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi; tavon to'lash hamda sud muhofazasi vositalarini tatbiq qilgan holda sud ishi va ma'muriy choralardan foydalanish imkoniyatini yaratadi (10-tamoyil); davlat atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida samarali qonunchilik hujjatlarini qabul qiladi; mazkur hujjatlarda ekologik standartlar, tartibga solish maqsadlari va tamoyillari ekologik barqarorlik va taraqqiyot shart-sharoitlarini aks ettiradi (11-tamoyil) va boshqalar.

Tadqiqotchi V.V. Leshinskaya tomonidan yoshlarning ekologik faoligi ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim omili sifatida o'rganilgan. Muallifning e'tirofiga ko'ra, "yoshlarning ekologik tashabbuslari, ekologik volonterligining pastligi, ekologik harakatning izchillikka ega emasligi zamonaviy ijtimoiy-gumanitar izlanishlar hamda globallashtirish dunyoda qadriyatlarining o'zgarishi muammosi nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda yoshlarning qadriyatli yo'naltirilganligi dinamikasi iste'molchilik dunyoqarashiga qarshi o'z mavjudligining gumanistik asoslarini anglashga bo'lgan intilish kuchayganligini ko'rsatmoqda" [8]. Ushbu fikrning yorqin isbotini O'zbekistonda ham tobora ommalashib borayotgan "Aktivist" loyihasi misolida ham ko'rish mumkin. Loyiha doirasida bir guruh faol yoshlar respublika, xususan, uning poytaxti bo'lgan Toshkent shahridagi ekologik vaziyat va uni beqarorligiga mas'ul rahbarlar, jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qilmoqda. Misol uchun 2024 yilning 14 yanvar kuni "Gazeta.uz" saytida berilgan xabarga ko'ra, faollar va blogerlar tomonidan Toshkent markazida aholi va hukumat e'tiborini ekologik muammolar, xususan, havo sifati yomonligiga qaratish uchun #tozahavokerak heshtegi ostida feshmob o'tkazilgan. Unda Toshkent shahri misolida sonu sanog'i yo'q qurilishlar tufayli haddan tashqari ko'p daraxtlarning kesib yuborilishi, ulovlarning ko'pligi sababli shahar transportida yuzaga kelgan bosimning ortib borayotgani sababli yuzaga kelayotgan havoning keskin ifloslanishi

muammosini yechimi yuzasidan rasmiylardan bir martalik emas, balki uzoq muddatli va keng qamrovli yechimlarni kutayotganini bildirildi [3].

V.V.Leshinskaya yoshlarning ekologik faolligi muammosini tahlil qilar ekan, quyidagi xulosalarni ilgari suradi: so'nggi besh yil ichida yoshlar ekologik faoliyatining kuchayishi hamda ekologik volonterlikning rivojlanishida samarali ta'sirga ega an'analar shakllandi; ushbu hodisa sabablarini, ijtimoiy shart-sharoitlarini, psixologik mexanizmini o'rganish falsafiy refleksiya (falsafiy nuqta nazardan tahlil va baholash)ni amalga oshirishni hamda mazkur hodisaning falsafiy asoslarini sinchikovlik bilan ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Binobarin, yoshlarning amaliy xarakterdagi ekologik harakatini rivojlantiruvchi motivatsion omillarni tushuna olish, ularning mohiyatini anglash kelgusida ushbu harakatni yanada rivojlantirishga yordam beradi [8].

Atrof-muhit muhofazasini tashkil qilish harakati faollarining tashabbusi bilan Moskva shahridagi oliy ta'lim muassasalari (OTM)ning talabalari o'rtasida OTMEkoFest tadbirining izchil tashkil qilinishiga erishildi [8].

E.Sh.Axmetova zamonaviy ekologik muammolar gumanizm, umuminsoniy qadriyatlarni chuqurroq anglash zarurligini yanada dolzarblashuvini ta'minlashiga e'tiborni qaratgan holda aynan "ekologik muammolar nafaqat jamiyatni, ishlab chiqarishni qayta qurish kerakligini anglatadi, balki yangicha axloq, ma'naviyat, ekologik ong vositalarining tizimi hamda "jamiyat-tabiat" tizimini aks ettirgan holda unga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirib, uning faol muhofazasini talab qilinadigan bilim, qarash va e'tiqodi jamlanmasi bo'lgan shaxsning ekologik madaniyati sifatida ekologik ta'lim mohiyatini ham kengaytiradi", degan fikrni ilgari surgan [2].

Global iqlim o'zgarishlari sharoitida shaxs ekologik faolligini oshirishga oid xorijiy tajribalarni o'rganishga qaratilgan nazariy tahlil natijalariga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Globallashuv sharoitida ekologik barqarorlikka erishish Yer sharidagi barcha tirik jonzorlar, xususan, insoniyat mavjudligi va kelajagini kafolatlashning muhim sharti sanaladi.

2. Ekologik barqarorlikka erishish nafaqat jamiyatlarning, balki ularda istiqomat qilayotgan har bir ijtimoiy sub'ektning ma'naviy-axloqiy burchi, umuminsoniy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois shaxsning ekologik faolligi faqatgina ijtimoiy sub'ektga taalluqli axloqiy kategoriya bo'lmay, balki har bir jamiyat va hatto barcha jamiyatlar a'zolari tomonidan ekologik barqarorlikka erishish yo'lida amalga oshiradigan harakatlarning asosi bo'lishi zarur.

3. Xorijiy mamlakatlarining shaxs ekologik faolligini oshirishga oid tajribalari bilan tanishish, ularning mohiyatini o'rganish talabalarida ekologik tizim muhofazasi uchun mas'ullik hissini samarali tarbiyalashga xizmat qiladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ustuvor tamoyillari, yetakchi g'oyalari, puxta mexanizmini asoslashga imkon beradi.

4. Tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotgan atrof-muhit muhofazasi masalasi BMT anjumanlarining kun tartibidan o'rin olgan. Nufuzli tashkil tomonidan o'tkazilgan Stokgolm (1972 yil), Tbilisi (1977 yil) va Rio-de-Janeyro (1992 yil) anjumanlarida xalqaro miqyosda shaxs va davlatning atrof-muhit muhofazasini tashkil qilishdagi pozitsiyasini belgilash bilan birga samarali ekologik ta'limning ustuvor jihatlari ham aniqlangan. Unga ko'ra ta'lim oluvchilarning atrof-muhitga ongli, mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda o'qitishning amaliy xarakterga ega bo'lishi muhim sanaladi.

- **Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, ekologik barqarorlikni ta'minlash globallashuv sharoitida insoniyat oldida turgan eng muhim va tezkor hal qilinishi zarur bo'lgan muammodir. Yer sharidagi jamiyatlarning ilmiy-texnik, texnologik va potentsial imkoniyatlarni yagona maqsadga yo'naltirish mazkur muammoni tez va samarali hal qilish imkonini beradi. Buning uchun aholi ongi ekologik madaniyatga boy bo'lmog'i zarur

#### ADABIYOTLAR

1. Abdraximov V.Z., Abdraximov D.V. Ekologicheskoe obrazovanie molodeji // J. Vestnik Prikamskogo sotsial'nogo instituta. – Perm: 2021. - № 2 (89). – S. 206.
2. Axmetova E.Sh. Ekologicheskaya aktivnost jiteley monopromyshlennogo goroda: opyt teoretiko-empiricheskogo analiza // <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologicheskaya-aktivnost-zhiteley-monopromyshlennogo-goroda-opyt-teoretiko-empiricheskogo-analiza>.
3. "Bir martalik emas, uzoq muddatli yechimlar kerak". Faollar toza havo so'rab fleshmob uyushtirdi (foto) // <https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/14/tozahavokerak>.
4. Deklaratsiya Konferentsii Organizatsii Ob'edinennix Natsiy po problemam okrujayushhey cheloveka sredy / Prinyata Konferentsiey Organizatsii Ob'edinennix Natsiy po problemam okrujayushhey cheloveka sred, Stokgolm, 1972 god // [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/declarations/declarathenv.shtml](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declarathenv.shtml).
5. Doklad Konferentsii Organizatsii Ob'edinennix Natsiy po okrujayushhey srede i razvitiyu / Rio-de-Janeyro, 3-14 iyunya 1992 goda. Rezolyutsii, prinyatyie na Konferentsii. – Nyu York: OON, 1993. – Tom 1. – S. 1-7.
6. Konferentsiya OON po okrujayushhey srede i razvitiyu, Rio-de-Janeyro, Braziliya, 3-14 iyunya 1992 goda // <https://www.un.org/ru/conferences/environment/rio1992>.
7. Konferentsiya OON po problemam okrujayushhey cheloveka sredy, 5-16 iyunya 1972 goda, Stokgolm, Shvetsiya // <https://www.un.org/ru/conferences/environment/stockholm1972>.
8. Leshinskaya V.V. Razvitie ekologicheskoy aktivnosti molodeji kak faktor formirovaniya ekologicheskoy kul'tury // J. Filosofskie nauki. 2017. - № 3. – S. 127.
9. Mejdunarodniye deklaratsii i soglasheniya po voprosu ekologicheskogo obrazovaniya // <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n11/351/91/pdf/n1135191.pdf>.
10. Carter L.Robert, Simmons Bora. The History and Philosophy of Environmental Education // The Inclusion of Environmental Education in Science Teacher Education. – USA: Springer Science+Business Media B.V. 2010. – pp. 3-16.
11. James Farmer, Doug Knapp, Gregory M. Benton (2010). The Department of Recreation and Park Administration, Indiana University // <https://doi.org/10.3200/JOEE.38.3.33-42>.
12. Karama, Muneer Jebreel. A comparative survey of environmental education goals between the UNESCO framework and 10th grade Palestine curriculum // International Journal of Curriculum and Instruction. – San Diego (USA): 2016. Number 8(2). – pp. 1-17.